

**FARG'ONA VILOYATI TARIXIY YODGORLIKARINING AHOLI MA'NAVIY
HAYOTIDAGI O'RNI (MARG'ILON MISOLIDA)****Soliyeva Gulhayo**

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

Tarix yo'naliishi 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14838706>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Farg'ona viloyati, xususan, Marg'ilon shahridagi tarixiy yodgorliklarning aholi ma'naviy hayotidagi o'rni tahlil qilinadi. Marg'ilondagi Xo'ja Mag'iz maqbarasi, Said Ahmad Xo'ja madrasasi kabi muhim tarixiy obidalar milliy merosni saqlash, diniy-ma'naviy tarbiyani shakllantirish va tarixiy xotirani mustahkamlashda muhim rol o'yaydi. Shuningdek, maqolada ushbu yodgorliklarning hunarmandchilik va sayyohlik rivojiga qo'shayotgan hissasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Marg'ilondagi tarixiy yodgorliklar nafaqat o'tmishning guvohlari, balki yosh avlodni tarbiyalash va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish vositasi hamdir.*

Kalit so'zlar: Marg'ilon, Farg'ona viloyati, tarixiy yodgorliklar, ma'naviy hayot, milliy meros, Xo'ja Mag'iz maqbarasi, Said Ahmad Xo'ja madrasasi, hunarmandchilik, ipakchilik, tarixiy xotira, diniy-ma'naviy tarbiya, madaniy meros, sayyohlik, iqtisodiy rivojlanish, milliy qadriyatlar.

**РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В
ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ МАРГИЛНА)**

***Аннотация.** В данной статье анализируется роль исторических памятников Ферганской области, в частности города Маргилан, в духовной жизни населения. Такие значимые исторические объекты, как мавзолей Ходжса Магиз и медресе Said Ahmad Xodjxa, играют важную роль в сохранении национального наследия, формировании религиозно-нравственного воспитания и укреплении исторической памяти. Кроме того, в статье рассматривается вклад этих памятников в развитие ремесленничества и туризма. Результаты исследования показывают, что исторические памятники Маргилана являются не только свидетелями прошлого, но и инструментом воспитания молодого поколения, а также средством развития местной экономики.*

Ключевые слова: Маргилан, Ферганская область, исторические памятники, духовная жизнь, национальное наследие, мавзолей Ходжса Магиз, медресе Said Ahmad Xodjxa, ремесленничество, шелководство, историческая память, религиозно-нравственное воспитание, культурное наследие, туризм, экономическое развитие, национальные ценности.

THE ROLE OF HISTORICAL MONUMENTS IN THE SPIRITUAL LIFE OF THE POPULATION OF FERGANA REGION (BASED ON THE EXAMPLE OF MARGILAN)

Abstract. This article analyzes the role of historical monuments in the spiritual life of the population in the Fergana region, particularly in the city of Margilan. Important historical sites such as the Khoja Magiz Mausoleum and the Said Ahmad Khoja Madrasah play a crucial role in preserving national heritage, shaping religious and spiritual education, and strengthening historical memory. Additionally, the article highlights the contribution of these monuments to the development of craftsmanship and tourism. The research results indicate that the historical monuments of Margilan are not only witnesses of the past but also serve as a means of educating the younger generation and fostering local economic growth.

Keywords: Margilan, Fergana region, historical monuments, spiritual life, national heritage, Khoja Magiz Mausoleum, Khoja Porso Mosque, Said Ahmad Khoja Madrasah, craftsmanship, silk production, historical memory, religious and spiritual education, cultural heritage, tourism, economic development, national values.

Kirish: Farg‘ona vodiysi, ayniqsa Marg‘ilon shahri, O‘zbekistonning eng qadimiy va boy tarixga ega hududlaridan biri hisoblanadi. Bu shahar Markaziy Osiyo madaniyati va hunarmandchiligidagi muhim o‘rin tutib, tarixiy yodgorliklari orqali xalqning ma’naviy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu maqolada Marg‘ilondagi tarixiy obidalarning mahalliy aholi ongidagi o‘rni va ularning madaniy-ma’naviy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi.

Marg‘iloning tarixiy obidalari va ularning ahamiyati

Marg‘ilonda qadimdan hunarmandchilik, savdo va ilm-fan rivojlangan. Bu yerda joylashgan tarixiy yodgorliklar xalqning o‘z o‘tmishini eslab qolishida muhim rol o‘ynaydi.

Marg‘ilonda quyidagi muhim tarixiy obidalar mavjud:

Xo‘ja Ma’oz ibn Jabal ziyoratgohi Marg‘ilon shahrida joylashgan bo‘lib, mahalliy aholi ushbu mozorni payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sahabalaridan biri, faqih va roviy Ma’oz ibn Jabal bilan bog‘laydilar. Ma’oz ibn Jabalning to‘liq ismi Abu Abdurahmon al-Ansoriy al-Xazrajiy al-Jashmiy bo‘lib, u 640-yili vafot etgan. Garchi u Movarounnahrga kelmagan bo‘lsa-da, uning nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlar nafaqat Farg‘ona vodiysida, balki Xorazmda ham mavjud.

Marg‘ilondagi ziyoratgoh aholi orasida "Xo‘ja Mag‘iz", "Xasti Ma’oz mozori" deb ham ataladi. Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shedrin kutubxonasining Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida Xo‘ja Ma’oz ziyoratgohiga oid bir qator hujjatlar saqlanmoqda. Marg‘ilon uyezdidagi vaqf yerlariga solingan mulk solig‘i hujjatlarida ushbu ziyoratgohga oid ma’lumotlar uchraydi.

Jumladan, Avval volostining Pastki Uchqo‘rg‘on qishlog‘ida hamda Zarkent volosti, Qirg‘uli qishloq yig‘ini, Suxtepa qishlog‘ida Xazrati Ma’oz ibn Jabal mozori, madrasa va masjidi mavjud bo‘lgani qayd qilingan.

Hozirgi kunda Xo‘ja Ma’oz majmuasi quyidagilardan iborat:

1. Darvozaxona
2. Maqbara
3. Mo‘yi muborak ziyoratxonasi
4. Katta yozgi ayvonli masjid

Qabristonning ichki qismida joylashgan "Xo‘ja Mag‘iz" maqbarasi ushbu majmuaning eng qadimi qismi bo‘lib, XV–XVI asrlarga oid. Hozirda maqbaraning dastlabki bezaklari va peshtoqining yuqori qismi nurab tushgan bo‘lsa-da, imorat o‘ziga xos mahalliy me’moriy xususiyatlarini saqlab qolgan. Majmua hududida joylashgan Chillaxona ham dastlabki inshootlardan biri hisoblanadi. U maqbaraning shimoli-sharq tomonida, taxminan 15 metr masofada joylashgan.

Said Ahmadxo‘ja madrasasi 19-asr oxirida qurilgan. Madrasa uyg‘un kompozitsiya, qurilish elementlarining mutanosibligi va oqilona konstruksiyalari bilan ajralib turadi.

Majmuaning asosini madrasaning o‘zi va shiftlari bo‘yagan zal va ayvondan iborat masjid tashkil etadi. Said Ahmad Xo‘ja madrasasi unchalik an‘anaviy bo‘lmagan arxitekturasi bilan ajralib turadi: uning qurilishida ham sharqona, ham Yevropa uslublaridan foydalanilgan. Bino pishiq g‘ishtdan qurilgan, ammo mahalliy seysmik sharoitlarni hisobga olgan holda hunarmandlar masjid devorlarini yevropacha usulda ikki qatorli yog‘och ramka bilan mustahkamladilar, bu esa masjidning ichki makonini vizual ravishda kengaytirish imkonini berdi. 2007-yilda Said Ahmadxo‘ja madrasasi binosi rekonstruksiya qilinib, yodgorlikka keng yo‘l olib kelinib, atrofiga bog‘ barpo etildi. Madrasa hovlisidan oqib o‘tadigan keng ariq tojlari yoyilgan keksa chinorlar issiq kunlarda soya va salqinlik yaratadi. Said Ahmad Xo‘ja madrasasida dindorlar Qur’on va Hadis ilmlarini o‘rganganlar, ikki asr avval madrasa shogirdlari istiqomat qilgan 26 hujrada hozir mahalliy hunarmandlarning to‘quvchilik, zardo‘zlik bilan shug‘ullanuvchi ustaxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xo‘ja egiz ziyoratgohi Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahridagi Ipak yo‘li mahallasi Xo‘ja Egiz ko‘chasida joylashgan qadamjo. Xo‘ja Egiz kompleksi mozor va masjiddan iborat. Qo‘qon xonligi davrida ham Xo‘ja Egiz ziyoratgohi bo‘lib, Marg‘ilon shahrining muqaddas joylaridan biri sifatida aholining ziyoratgohiga aylangan edi. Ammo mozor sovetlar mafkurasida muqaddas ziyoratgohlarga nisbatan salbiy qarashlarning mavjudligi bois Sobiq ittifoq davrida buzib tashlangan. 1994-yilga kelib, Xo‘ja Egiz mozori qayta tiklangan. Mozorni qayta barpo etishda uning saqlanib qolgan poydevorlarini ko‘rgan ustalar g‘oyat taajjubga tushganlar. Chunki,

mozorning poydevorlari uch- to‘rt qavatdan iborat bo‘lib, ziyoratgohning VI-VII asr muqaddam bunyod etilganidan dalolat beradi. Masjid XX asrning oxirida ziyoratgohga tutash eski masjid o‘rnida bunyod qilingan. Me’mori noma’lum. Bu masjidning ham ayvon qismi saqlanib qolgan, qishki nomozxona shiftining naqshlari ustidan bo‘yoqlab tashlangan. Hozirda ushbu masjidda „Abdullox Ibn Ma’sud“ rasmiy masjidi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xulosa va takliflar: Marg‘ilondagi tarixiy yodgorliklar shahar aholisi uchun nafaqat me’moriy obidalar, balki ma’naviyat va qadriyatlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydigan maskanlardir. Ushbu yodgorliklar xalqning diniy, madaniy, tarbiyaviy va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Birinchidan, tarixiy yodgorliklar diniy va axloqiy tarbiyada katta ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Xonako masjidi va Pir Siddiq maqbarasi kabi joylar aholining islomiy qadriyatlarni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Ushbu maskanlar nafaqat ibodat qilinadigan joy, balki yoshlarga axloqiy fazilatlarni singdiradigan ma’naviy makon hamdir. Bu joylarga tashrif buyurish orqali odamlar o‘zlarining ma’naviy dunyosini boyitadi, insoniylik va ezhulik yo‘lida harakat qilishga intiladi.

Ikkinchidan, tarixiy yodgorliklar milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Marg‘ilonning qadimiy madrasalari va maqbaralari ajdodlarimizning ilm-fan va ma’rifat yo‘lida qo‘sghan hissasini eslatadi. Yoshlar bu yodgorliklarni ziyorat qilib, ajdodlarining boy ilmiy va madaniy merosidan ilhomlanadi. Shuningdek, bu yodgorliklar orqali milliy g‘urur va tarixiy xotira mustahkamlanadi.

Uchinchidan, Marg‘ilonning tarixiy obidalari madaniy va san’at an’analaring saqlanishi va rivojlanishiga hissa qo‘sadi. Hunarmandchilik markazlari va qadimiy binolar xalq san’ati, ipakchilik va me’morchilik an’analarni kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, tarixiy obidalar yonida joylashgan bozorlar va ustaxonalarda hunarmandchilik an’analari davom ettirilmoqda. Bu esa Marg‘lonni nafaqat tarixiy shahar, balki tirik madaniy markazga aylantiradi.

Marg‘ilondagi tarixiy obidalar nafaqat o‘tmish merosi, balki kelajak avlodlar uchun beba ho boylikdir. Ularning saqlanishi va keng targ‘ib etilishi milliy madaniyatni mustahkamlash, turizmni rivojlantirish va iqtisodiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Tarixiy obidalarni saqlash va restavratsiya qilish

Davlat va xususiy sektor hamkorligida tarixiy obidalarni ta’mirlash va asrab-avaylash bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

2. Sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish

Marg‘ilondagi tarixiy joylarni targ‘ib qilish uchun interaktiv veb-sayt va mobil ilovalarni ishlab chiqish.

Sayyoohlarga qulaylik yaratish uchun zamonaviy mehmonxonalar, yo‘l ko‘rsatkichlari, audio-gid xizmatlarini tashkil etish.

Turistik marshrutlarni kengaytirish, jumladan, ipakchilik ustaxonalari va milliy hunarmandchilik markazlarini sayyoohlilik yo‘nalishlariga kiritish.

REFERENCES

1. Jo‘rayev, S. (2003). O‘zbekiston tarixi. Toshkent: Universitet.
2. Saidov, U. (2015). Farg‘ona vodiysi tarixi va madaniyati. Farg‘ona: Ilmiy meros.
3. Rashidov, K. (2010). Farg‘ona viloyatining tarixiy yodgorliklari. Farg‘ona: Adabiyot.
4. Jalilov, O. (2017). Islom me’morchiligi va uning Farg‘ona vodiysidagi yodgorliklari. Toshkent: Fan.
5. Yusupov, H. (2020). Farg‘ona vodiysi madaniy obidalari va turizm rivoji. Namangan: Ilm-fan.
6. Musurmonov, N. (2014). O‘zbekistonda tarixiy va madaniy merosni asrash. Toshkent: Yangi asr avlodи.
7. Qodirov, B. (2018). Mahalliy tarixiy yodgorliklar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. Samarqand: Ma’naviyat.